



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 448 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
Dilsora Shodmonova	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
Истамова Нигора Азимжановна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
Lola Mannobova	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
Alimova Gulrux Farhod qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
Axtamova Mohinur O'tkir qizi	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari...	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
<i>Xidirov Faxriddin Fozilovich</i>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
<i>Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda leksik-grammatik komponentni diagnostika qilish metodlari	284
<i>Mamatkulova Lobar Tolibjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning ta'limiy faoliyatini rivojlantirish.....	288
<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Nutqdagi fonetik kamchiliklarning o'quv faoliyati va savodxonlikka ta'siri	293
<i>Xikmatova Saboxat Xusniddinovna</i>	
Oliy ta'limda sog'lom psixologik muhitni shakllantirish omillari	296
<i>Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi</i>	
Social-Psychological Factors of Increasing the Quality of Life	300
<i>Abdullaeva Ranazhon Matyakubovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi zamonaviy o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslari.....	307
<i>Abdumalikova Gulchiroy</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari.....	311
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslarida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	316
<i>Azimova Maftuna Azizbekovna</i>	
Talabalarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari	321
<i>Eshbekova Dilnoza Ibraimovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida moslashuvchanlikning psixologik xususiyatlari	324
<i>Fayziyeva Gulhayo Erkin qizi, Fatullayeva Manzura Idillo qizi</i>	
Naim Karimov talqinida Oybek badiiy tafakkurining biografik manbalari	327
<i>Jonpo'lotova Gulshoda Qobil qizi</i>	
Kurashchilarning kuch sifatini rivojlantirishda maxsus mashqlardan foydalanish	334
<i>Muxamedjanov Umidulla Fayzullayevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy idealni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	337
<i>Saidova Malika Erkin qizi</i>	
Yengil atletika texnikalarini pedagogik mahoratni rivojlantirish metodikalarida qo'llash	340
<i>Sattarov Qarshiboy Narqulovich, Mirzayev Karim Mamarasul o'g'li</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida shug'ullanuvchilarning tezkorlik va chidamlilik sifatlarini rivojlantirishning innovatsion metodikasi	344
<i>Sattarov Sardor Sunnatulloevich</i>	
Innovatsion rivojlanish asosida uzluksiz ta'limning integratsiyalashgan mazmunini modellashtirish metodologiyasi.....	348
<i>Umarov Lutfillo Murodilloyevich</i>	
Milliy maktablarda rus tilini o'qitishda raqamli ta'lim resurslari va veb-saytlardan foydalanish metodikasi....	352
<i>Xolmirzayeva Munira Jahongir qizi</i>	
Педагогические основы повышения профессиональной компетентности будущих преподавателей физического воспитания высших образовательных учреждений	357
<i>Мавлянов Бахром Сангирович</i>	
Раннее выявление и мониторинг кожных заболеваний с помощью искусственного интеллекта: интегрированные архитектуры, алгоритмы и перспективы клинического внедрения	361
<i>Э. Ш. Назирова, Ш. Б. Абдусаломова</i>	
Ingliz tilida modallikni ifodalash vositalari va ularning semantik xususiyatlari	368
<i>Abdujalilova Sarvinov Rashid qizi, Abdurazzokova Mehriniso Azimjon qizi</i>	

Ona va farzand munosabatlarida etnomadaniy omillarning psixologik xususiyatlari.....	373
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchilarning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning o'rni	378
<i>Abdurahmanov Muhammadjon G'ulomjonovich</i>	
Aralash ta'lim texnologiyalari asosida ta'lim jarayonini loyihalashning ilmiy-metodik asoslari.....	381
<i>Alibayev Sobir Xolboyevich</i>	
Formativ baholash jarayonidan foydalanib o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish	386
<i>Amirkulova Dilnoza Zokir qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy-pedagogi faoliyatga tayyorlash tendensiyalari	389
<i>Artikbayeva Aziza Abror qizi</i>	
The Role of National Values in English and Uzbek Literature: a Comparative Study	392
<i>Ataniyazova Sohiba Xamidovna</i>	
Frans Kafka ijodining psixologik talqini.....	396
<i>Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich</i>	
Development of a Set of Health-Promoting Exercises for Middle-Aged Men 50-60 Years Old, Taking Into Account Physical Training	400
<i>Dehqonova Mahmuda Ortiqovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarni jismoniy rivojlantirish metodikalari	404
<i>Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	
Современные мобильные технологии: эволюция и развитие.....	408
<i>Жураев Илхом Исхокович</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirishning mazmuni	413
<i>Kamalova Dilobar Tairovna</i>	
Methodology for Developing Communicative Competence of Future Teachers Based on Multimedia Tools.....	418
<i>Kudratova Sultonposhsha Otabek qizi, Khalilova Mukhlisa Ulug'bek qizi, Ziyotova Umida Otabek qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida ona tili darslarida matn bilan ishlashni tashkil etish.....	423
<i>Erdanova Zamira Olimovna</i>	
Milliy sport turlari orqali talaba yoshlar bilan interfaol dars jarayonini tashkil etish.....	426
<i>Mirzayev Az'am Xudaynazarovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	
Pedagogika bitiruvchilarining kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishga asoslangan barqaror bandligini ta'minlash modeli.....	430
<i>Omonova Mohiniso Maqsud qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiyani sun'iy intellekt asosida takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari.....	435
<i>Panjiyev Jo'raqul Menglimamat o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda web-kvest topshiriqlardan foydalanish.....	440
<i>Saidova Gavhar Ergashovna, Itolmasova Oygul Sabritdinovna</i>	
Developing Communicative Competence in English Language Education Through Modern Interactive Methods.....	443
<i>Sativoldieva Shoxsanam Utkir qizi</i>	



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FANLARARO INTEGRATSIYANI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Panjiyev Jo'raqul Menglimamat o'g'li
Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim darslarini fanlararo integratsiyalashning pedagogik ahamiyati, nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari yoritiladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash o'quvchilarda yaxlit bilim tizimini shakllantirish, mantiqiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, o'quv motivatsiyasini oshirish hamda o'rganilayotgan mavzularni hayot bilan bog'lashga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: fanlararo aloqadorlik, metodologik asoslar, dars, o'quvchilar, ta'lim, o'qitish, boshlang'ich sinf, tabiat va jamiyat.

Abstract: This article examines the pedagogical significance, theoretical foundations, and practical opportunities of interdisciplinary integration in primary education lessons. It highlights the role of establishing interdisciplinary connections in the teaching and learning process to foster a holistic system of knowledge among students, develop their logical and critical thinking skills, enhance learning motivation, and facilitate the application of acquired knowledge to real-life contexts. Furthermore, the study discusses the contribution of interdisciplinary integration to improving the quality and effectiveness of education, as well as effective approaches to its implementation in educational practice.

Key words: interdisciplinary integration, interdisciplinary relationships, methodological foundations, lesson, students, education, teaching, primary school, nature and society.

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогическое значение, теоретические основы и практические возможности межпредметной интеграции на уроках начального образования. Освещается роль обеспечения межпредметных связей в образовательном процессе в формировании у учащихся целостной системы знаний, развитии логического и критического мышления, повышении учебной мотивации, а также в установлении связи изучаемого материала с реальной жизнью. Кроме того, анализируется значение межпредметной интеграции в повышении качества и эффективности образования, а также рассматриваются эффективные подходы к её внедрению в педагогическую практику.

Ключевые слова: межпредметная интеграция, межпредметные связи, методологические основы, урок, учащиеся, образование, обучение, начальная школа, природа и общество.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida fanlararo integratsiya o'quvchilarda olamning yaxlit manzarasini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik tamoyillardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning bilish faoliyati asosan yaxlit idrok etishga asoslanganligi sababli fanlararo aloqadorlikni ta'minlash ta'lim samaradorligini oshiradi. Integratsiyalashgan ta'lim o'quvchilarning bilimlarni turli fanlar kesimida qo'llashi, muammolarni kompleks hal etishi hamda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishiga imkon beradi. Pedagogik adabiyotlarda fanlararo integratsiya turli o'quv fanlari mazmuni, metodlari va kompetensiyalarining o'zaro uyg'unlashuvi sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash, dunyoqarashni kengaytirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari ta'lim jarayonini individuallashtirish, adaptiv o'qitishni tashkil etish va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini tahlil qilish imkoniyatlarini yaratmoqda. Sun'iy intellektga asoslangan ta'lim platformalari o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlab, ularga mos o'quv materiallarini tavsiya etadi. Umumta'lim mazmuni o'quvchilarni har tomonlama ruhiy rivojlantirishga, ularda turli xil ong va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Har bir o'quv fanini o'rganish o'quvchining materialni anglash jarayonini, uni eslab qolishni va ta'sirchanlikni faollashtiruvchi, tafakkur, nutq va tasavvurni rivojlantiruvchi ruhiy

faollikni yuzaga keltirishga imkon beradi. Ayniqsa, bilish jarayonida bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tafakkur turlarini rivojlantirish juda muhimdir.

Fanlar o'rtasidagi o'zaro uzviylik tabiat va jamiyat voqealari o'rtasidagi mavjud uzviylikning obyektiv in'ikosidir. Binobarin, o'zaro uzviylik tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarga xos umumiy va muhim xususiyat hisoblanadi. Har bir narsa va hodisani bilish uning boshqa narsa va hodisalar bilan bo'lgan munosabatini bilishga bog'liq.

Mazkur vazifalarga hamohang tarzda o'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida uning metodologik-didaktik infratuzilmasini vujudga keltirish, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligini ta'minlash lozim. O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatning samaradorligi asosan o'quv fanlari o'qituvchilarining ijodiy izlanishlari va faoliyatlarining mazmundorligiga ham bog'liq.

Shuningdek, fanlararo aloqadorlikni ta'minlashda mazmun jihatdan o'zaro yaqin fanlarning manbalari nihoyatda talabchanlik bilan tanlanishi lozim. Shundagina o'rganilayotgan o'quv materialining ilmiy-amaliy darajasi oshadi.

Binobarin, boshlang'ich sinflarda fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yishdan maqsad o'quvchilarda fanlarning soni, shakli, rangi bo'yicha zarur tasavvurlar hosil qilish va yuqori sinflarda fanlarni puxta o'rganish uchun zamin yaratishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatuvchanlikni rivojlantirish xususiyati shundan iboratki, obyektiv borliqni o'rganish bilan bir vaqtda o'rganilayotgan voqea va hodisalarning konkret mazmunidan moddiy dunyoning eng umumiy tomonlariga tegishli bo'lmagan, uning miqdoriy tomonlariga hamda fazoviy shakl va munosabatlariga tegishli bo'lmagan hamma narsaga nisbatan abstraksiyalanadi.

Ta'lim mazmunini takomillashtirish, ilmiy, hayotiy, qiziqarli materiallarni zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida amalga oshirish mumkin. Ana shunday materiallardan biri – integratsion bilimlar hisoblanadi.

Atrof-muhit muvozanati va tabiat holatidagi muvofiqliklar inson hayotining maromini belgilaydi. Inson hayoti maromini esa uning ma'naviyati belgilaydi. Ma'naviyati yuksak bo'lgan shaxsdagina ilmiy tushuncha va ilmiy tafakkur madaniyati shakllangan bo'ladi. O'sib kelayotgan yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish yaxshi natijalar beradi.

O'zbek xalqining tabiat va inson munosabatiga oid qarashlari, tabiatning sahovati-yu, insonning tabiatga mehr-muhabbati xalq og'zaki ijodi va folklor asarlarida chuqur aks ettirilgan. Chunki xalqimiz tabiatdan alohida yashay olmasligini, undagi har bir giyoh, dov-daraxt, gul-gulzor, hasharotlar-u parrandalar, qushlar-u hayvonlar o'zlarining hayot kechirishlarida muhim rol o'ynashini tushunib yetganlar. Shu bois foydalilarini ko'paytirishga, zararlilarini kamaytirishga intilganlar.

O'quv faoliyatidagi qiyinchilik sabablaridan biri fanlararo integratsiyadan samarali foydalanmaslikdir. O'quvchilarning bir fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarining sababi boshqa bir fandan yaxshi bilimga ega bo'lishlari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, katta hajmdagi matnni savodli ko'chirib olish uchun uni tez va to'g'ri o'qiy olish malakasi talab qilinadi. Agar bunday imkoniyat haqida gapirmasdan turib, o'qituvchi o'rgatiladigan har bir fanni boshqasi bilan solishtirmasdan, taqqoslamasdan, uning ma'lumotlaridan foydalanmasdan o'rgatsa, bu ancha qiyin va zararli bo'lishi mumkinligini his qilishi lozim.

Fanlararo aloqadorlik tamoyillariga amal qilish ta'lim-tarbiya sifatini oshirishning muhim omillaridan hisoblanadi. Ma'lumki, bunday aloqadorlik o'rganilayotgan obyektning har tomonlama chuqur o'rganishni ta'minlaydi. U pedagogikada uzviylik, fanlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va integrativ aloqadorlik darajalarida talqin etiladi. Jumladan:

1. **Uzviylik** – o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarning asta-sekinlik bilan kengayib, chuqurlashib, mukammallashtirib borishini ko'zda tutadi.
2. **Fanlararo aloqadorlik** – o'z mohiyatiga ko'ra keng tushuncha bo'lib, o'rganilayotgan obyektning turli jihatlari va xususiyatlarining har tomonlama ochib berilishini nazarda tutadi.
3. **O'zaro aloqadorlik** – mohiyatiga ko'ra ikki o'quv fani orasidagi aloqadorlikni, ya'ni birinchi o'quv fani bo'yicha o'zlashtirilgan bilim va ish-harakat usullarining ikkinchisida qo'llanilishini ifodalaydi.
4. **Integrativ aloqadorlik** – nisbatan yuqori darajali aloqadorlik bo'lib, avval zikr etilganlaridan o'quv dasturiga va maqsadga muvofiq kiritilganligi bilan farq qiladi. Albatta, uni ta'minlashni talab etadi. Natijada obyekt haqida tizimli, mukammal bilim va ish-harakat usullari shakllanishiga imkon yaratadi.

Fanlararo aloqadorlikni o'rnatish uchun o'quv materialini mazmuni mantiqiy, psixologik, didaktik, metodik va boshqa jihatlarda tahlil etiladi. Pedagogik amaliyotda o'quv materialini mavzular bo'yicha va tarkibiy tahlil etish usullaridan keng foydalaniladi.



Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibida esa shu o'quv faniga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

Fanlararo integratsiya bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni o'zlashtirish sohasida ham, ijodiy faoliyat va borliqdagi o'zlashtiriladigan obyektlarga hissiy-qadriyatli munosabatni shakllantirishda ham o'rnatilishi kerak. Fanlararo aloqadorlik o'quv-tarbiyaviy jarayonning barcha tarkibiy elementlarini yaxlit bir tizimga birlashtirishga xizmat qiladi.

O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi va ta'limni modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Maktabning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda dunyoga yaxlit, o'zaro aloqador bo'lgan birlik sifatida qarashni, uning global muammolari hamda bu muammolar yechimini ko'ra va tushuna bilishni shakllantirishdan iborat. Ta'lim mazmunida inson va uning dunyoga bo'lgan munosabati: inson va tabiat, inson va jamiyat, inson va inson, inson va texnika kabi muammolar tobora markaziy o'rin egallamoqda.

Tabiatni o'rganuvchi fanlarni bir sinfda bir marta o'rganib bo'lmaydi. Uni bog'cha va maktab tizimida uzluksiz hamda uzviylik asosida tizimli amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy fanlar ta'lim mazmuni inson va tabiat aloqadorligi atrofidagi muammolarni o'rganuvchi turli o'quv fanlariga oid bilimlar uzviyligi va integratsiyasini aks ettirmog'i lozim. Bu esa tabiiy fanlarga oid bilimlarni sifat jihatdan yangi o'zgarishlarga olib keladi. Bu bilimlar o'ziga xos sintez, tabiiy fanlarga oid bilimlar va insonparvar yo'nalishlar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Tafakkurning tizimli va ehtimoliy metod sifatida tavsiflanishi tabiiy bilimlarning ajralib turadigan xususiyatlari sirasiga kiradi.

Integrativ mashg'ulotlar o'quvchilarda ishonch hissini qaror toptiradi. O'quv jarayonining muvaffaqiyati hamda bilimlarning yuqori sifatini ta'minlaydi, darslarda psixologik qulayliklarning o'ziga xos qirralari singdiriladi, o'quvchilar faoliyatini samarali tashkil qilishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari taqdim etiladi.

Boshlang'ich maktablarda o'qitish va tarbiyalash integratsiyasi muammolari nazariy va amaliy jihatdan hozirgi zamon nuqtayi nazaridan juda muhim bo'lib, yangi ijtimoiy talablar asosida yanada dolzarblik kasb etadi. Bugungi kunda fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o'zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar maktab ta'limi oldiga yangi vazifalarni qo'yamoqda.

Shuningdek, hozirgi zamonda ilm berish tizimi yuqori darajada fan asoslarini o'rnatishga, olamni bir butunlikda anglashga va tasavvur etishga, tevarak-atrofdagi bo'layotgan voqealarni to'g'ri tushunishga, ularning mohiyatini anglab oladigan yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Olimlarning fikricha, integratsiya didaktik tamoyillar qatoriga kiradi va ular orasida yetakchi o'rin egallaydi. Bunday tushuncha ta'lim tizimida integratsiya masalasini, fanlararo uzviylik va bog'liqlik masalasini yana bir bor ko'rib chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Integrativ ta'lim jarayonida o'quvchi olamning yaxlitligini, koinot, tabiat qonunlarini, tabiat, jamiyat va insonlarning o'zaro munosabatlari haqida har tomonlama bilimlarga ega bo'lib kamol topadi. Tabiat go'zalligini his eta olish, undan zavqlanish, e'zozlash ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Ta'limning globallashuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq qo'llash ayni zaruriyatdir. Fanlararo uzviylik tamoyiliga tayanish ta'lim muassasalari o'quv jarayoni uchun tatbiqiy tus olishi lozim.

Bunday imkoniyat fanlararo yondashuv asosida ta'minlanadi. Uni o'quv fanlarini integratsiyalash shakli sifatida, subyektiv yangi bilimlarni sintez qilish metodi tarzida qarash mumkin. Fanlararo yondashuvni umumta'limning boshlang'ich sinflarida fanlararo aloqadorlikni samarali yo'lga qo'yishning eng optimal yo'nalishi sifatida qarash mumkin. O'quv fanlarini integratsiyalash natijasi fanlar o'zaro bog'lanmagan holda o'rgatilganda shakllantirish mumkin bo'lmagan subyektiv yangi bilimlarning o'zlashtirilishidir, degan konseptual g'oyaga tayaniladi.

Darhaqiqat, pedagogik atama sifatida fanlararo integratsiya umumta'lim sohasida mustahkam o'rnashgan bo'lib, bu umumiy pedagogikada integratsiya jarayonlarining uzoq tarixiy rivojlanishi natijasi bo'lgan. Jumladan, Y.A. Komenskiy didaktikani o'qitishda va umuman pedagogikada mavzulararo aloqalar g'oyasini ilgari surdi. Uning fikricha: "O'zaro bog'liq bo'lgan hamma narsani o'rgatish kerak, bir-biriga aloqador holda", deb ta'kidlaydi.

Integratsiyalashgan ta'lim maktablarda fan asoslari bo'yicha beriladigan bilimlar mazmuniga yangicha yondashuvni ko'zda tutadi va uning asosiy maqsadi o'quv materialini mantiqan tugal mazmundagi muammolar majmuasi sifatida o'rganish, o'quvchilar ongida olamning ilmiy manzarasini shakllantirish, tabiat va unda insonning o'rni haqida ilmiy tushuncha hamda bilimlarni tarkib toptirishdan iborat.

Umumta'lim va maxsus turkumdagi fanlarni integratsiyalash orqali ta'limni takomillashtirish imkoniyatlari ularning mazmunida mujassamlashgan bo'lib, u o'z tabiatiga ko'ra yagona bo'lgan atrof-olam to'g'risidagi bilimlarni ifoda etadi.

TADQIQOD METODOLOGIYASI

O'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishda fanlararo aloqadorlik mexanizmidan foydalanish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda o'qitish jarayonida hosil qilingan tasavvur va bilimlarni umumlashtirgan holda, o'quvchilarda tabiiy turkumdagi o'quv fanlari fanlararo aloqadorlik asosida muayyan ko'nikma, malaka va kompetensiyalar shakllantiriladi.

Jumladan, ta'lim mazmunidagi uyg'unlikni ta'minlash muammolari ham integratsiyalashuv bilan shug'ullanadigan soha hisoblanadi. U tushunchalarni umumlashtirishni o'rgatadi, ta'lim-tarbiyada bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni umumlashtirib, qonun yoki qoida ko'rinishiga keltirishni amalga oshiradi.

Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limni takomillashtirish jarayonini tashkil etishning turli shakllarida tanlangan ta'lim mazmuni, maqsadi va vazifasiga bog'liq holda muayyan metod va vositalardan foydalaniladi. Fanlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik tabiat va jamiyat voqealari o'rtasidagi mavjud uzviylikning obyektiv in'ikosidir. Binobarin, bu uzviylik tabiat hamda jamiyatdagi narsa va hodisalarga xos umumiy va muhim xususiyat hisoblanadi.

Darhaqiqat, ta'lim mazmunini tanlashda har bir o'quvchining o'ziga xos imkoniyat va qobiliyat darajasi alohida hisobga olinishi, shuningdek, har bir o'quvchining uzluksiz rivojlanish tamoyili asosida o'quv materiallarini integratsiyalash, integratsiyalashgan o'quv materiallarini qamrab olgan darsliklar yaratish taqozo qilinadi. Taqdim etiladigan bilimlarning mustahkamligi, o'quvchilarning umumiy rivojlanish darajasi dastlab maqsadga asoslanadi.

Integratsion darslardagi o'quv materiallari o'quvchini har tomonlama rivojlantirishni ta'minlashga va shu rivojlanish darajasiga muvofiq tarzda bayon qilinishi lozim. Har bir o'quvchiga o'zining mustaqil ta'lim olishiga imkoniyat berilishi hamda har bir darsda o'quvchilarda muntazam uyg'un ko'nikmalarni shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu ko'nikmalarning bir qismi malakaga aylanguniga qadar o'quv-bilish jarayonini ko'p tarmoqli jarayonlar bilan kengaytirib borish lozim. Ularning bir qismi mustaqil ishlar, boshqa bir qismi esa axborot manbalari yordamida hosil bo'ladi. Biz har qanday texnologiyadan foydalanmaylik, o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun ham imkoniyat yaratish lozim.

Shu bilan birga, mustaqil ishlash deganda o'quvchining yolg'iz, nazoratsiz faoliyati tushunilmaydi, balki o'z bilimini o'zi oshirishi tushuniladi. O'quvchilar o'zini qiziqtiradigan, yechishga kuchi yetadigan topshiriqlarni aynan o'zi tanlay olishi talab etiladi. Bunda o'quvchilarning xohishi va bilim sifati hisobga olinishi muhimdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir o'quvchini uzluksiz rivojlantirish g'oyasi muayyan darsda unda hosil bo'lgan ko'nikmalarni muntazam qo'llab-quvvatlashni anglatadi. Bu ko'nikmalarning bir qismi turli axborot manbalari bilan ishlash natijasida hosil bo'lsa, boshqa bir qismi integratsiyalashgan mashg'ulotlarda turli fanlararo aloqadorlik mazmunidagi bilimlar bilan ishlash natijasida vujudga keladi.

Uzluksiz ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar o'quvchilarni rivojlantirishning maqsadi emas, balki vositasi sifatida qaralishiga erishish lozim. DTS va Milliy o'quv dasturlarida ko'zda tutilgan ta'lim mazmunini o'zlashtirish natijasi mustahkam bilim, ko'nikma va malakalar sifatida namoyon bo'lishi kerak. Shundan keyingina o'quvchilarning individual imkoniyati va xohishini hisobga olgan holda bir qadar murakkabroq o'quv materiallarini taqdim etish, ular uchun o'quv materiallari maqbul o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarida o'z aksini topmog'i lozim.

Bunda o'quvchilarning bilim sifati va muayyan o'quv fanini o'rganishga qo'yiladigan talablar ham bir qadar oshiriladi. O'quvchilarning bilim darajasini oshirishda ta'lim mazmunini integratsiyalash, unda ta'lim mazmuniga singdirilgan barcha tushunchalarni tabiiy-ilmiy hamda ijtimoiy-gumanitar sohaga oid bilimlar sifatida taqdim etish muhimdir. Zero, integratsiyalashgan mashg'ulotlar o'quvchilarda dunyoning yaxlitligi haqida bir butun tasavvur hosil qilishga ko'maklashadi. Shuning uchun ham bir qator o'quv fanlarini integratsiyalashga bugungi kunda kuchli ehtiyoj sezilmoqda.

Xususan, boshlang'ich sinflarda o'quv fanlarini integratsiyalash dars samaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi, darsni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi, bo'sh vaqt orttiriladi va o'quvchilar fan to'garaklariga jalb etiladi.

O'quv fanlarini integratsiyalab dars o'tilganda quyidagilarga e'tibor berish lozim bo'ladi:

- har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak;
- fanlararo aloqadorlikka oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzular bilan bog'lanishi shart;
- sinf o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo'llarini aniqlash lozim;



- dars faqat ta'limiy bo'lib qolmasdan, o'quvchilarning insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak;
- mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlar, respublikamiz kelajagiga ishonch va e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak;
- umuman olganda, integratsiya darsi bir-biriga mos kelishi (mavzu jihatdan) va puxta reja asosida tuzilgan bo'lishi lozim.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda fanlarni mukammal egallashini va raqobatbardosh bo'lishini taqozo etadi. Bu jarayon ta'lim tizimida o'quv fanlarini fanlararo aloqadorlik mazmunida o'qitish bo'yicha xalqaro tajriba va andozalarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

Bunda ta'lim bo'yicha qator xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari ham dalolat bermoqda. Shu o'rinda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning 15 yoshli o'quvchilarning ona tili, aniq va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini baholashga qaratilgan PISA – o'quvchilar yutuqlarini baholash xalqaro dasturi tadqiqotlari natijalari diqqatga sazovordir.

Bundan tashqari, Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan TIMSS – ta'lim sifatining xalqaro monitoringi dasturini ham keltirish mumkin. Bu tadqiqot ishlari o'quvchilarning turli davlatlarda fanlardan bilim darajalari va sifatini solishtirish orqali milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlash imkoniyatini yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, fanlarning o'zaro integratsiyasi o'quvchilar tomonidan tabiatni bir butun, ya'ni yaxlit holda anglashga, ular tafakkurida olamning yagona tabiiy-ilmiy manzarasi vujudga kelishiga zamin yaratadi. Shu asosda integratsiya o'quvchilarda ekologik muammolarning mohiyati, tabiatdan oqilona foydalanish yo'llari, sog'lom turmush tarziga amal qilish tamoyillari, umumiy ma'noda zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyotining imkoniyat va muammolari hamda moliyaviy-iqtisodiy savodxonlik asoslarini tushunish va kundalik hayotda foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Fanlararo o'qitishda ichki va tashqi bog'lanishlar mavjud. Ichki bog'lanish deganda shu sohaga oid o'quv fanlari mavzularining o'zaro bog'lanishi tushuniladi. Tashqi bog'lanishda esa mazkur soha fanlari bilan boshqa o'quv fanlari mavzularining o'zaro bog'lanishi nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'lim: darslik. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2023. – 174 b.
2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Ilm Ziyo", 2013. – 192 b.
3. Saloxitdinova N.M. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limni takomillashtirish: o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Tamaddun", 2022. – 124 b.
4. Sharipova D., Xodiyeva D.P., Sharipov M.K. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi: darslik. – Toshkent: "Barkamol Fayz Media" nashriyoti, 2018. – 456 b.
5. Suyarov K. va boshq. Tabiiy fanlar: 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
6. Sangirova Z. va boshq. Tabiiy fanlar: 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 136 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.